FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11-son

UDK: 37.017.4:811.512.133

Xudoyqulov Xol Jumayevich,
O‘zbekiston Milliy universiteti “Pedagogik ta’lim” kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori, Xalqaro “Pedagogik ta’lim” fanlari akademiyasi akademigi

Salimov Ma’ruf Eshdavlat o‘g‘li,
O‘zbekiston Milliy universiteti “Pedagogik ta’lim” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

O‘QUVCHILARDA ONA TILI DARSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI VATANPARVARLIK TUYG‘USINI TARBIYALASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5–11-sinf o‘quvchilarida ona tili darslari orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ona tili ta’limining milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash, milliy qadriyatlarga hurmat va Vatanga daxldorlik hissini shakllantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, o‘quv materiallariga vatanparvarlik mazmunini bosqichma-bosqich singdirish, fanlararo integratsiyani ta’minlash, leksik-semantik va etimologik tahlil, ijodiy topshiriqlar hamda amaliy mashg‘ulotlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari yoritilgan. O‘quvchilarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik tamoyillar, baholash mezonlari va ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat yo‘nalishlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi-yoshlar, vatanparvarlik tarbiyasi, ona tili ta’limi, milliy qadriyatlar, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, fuqarolik mas’uliyati, dunyoqarash, fanlararo integratsiya, pedagogik texnologiya, ma’naviy tarbiya, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari.

ВОСПИТАНИЕ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности формирования и развития чувства патриотизма у учащихся 5–11-х классов общеобразовательных школ посредством уроков родного языка. Научно обоснована роль обучения родному языку в формировании национального самосознания, сохранении исторической памяти, уважения к национальным ценностям и чувства сопричастности к судьбе Родины. Особое внимание уделено поэтапному включению патриотического содержания в учебный процесс, межпредметной интеграции, лексико-семантическому и этимологическому анализу, творческим заданиям и практическим занятиям. Предложены педагогические принципы, критерии оценивания и направления учебно-воспитательной деятельности, направленные на формирование патриотических качеств учащихся.

Ключевые слова: учащиеся, патриотическое воспитание, обучение родному языку, национальные ценности, национальное самосознание, историческая память, гражданская ответственность, мировоззрение, межпредметная интеграция, педагогические технологии, духовно-нравственное воспитание, эпосы «Алпамыш», «Гороглы».

DEVELOPING PATRIOTISM AMONG STUDENTS THROUGH MOTHER TONGUE LESSONS

Abstract. This article examines the pedagogical opportunities for developing a sense of patriotism among students in grades 5–11 through mother tongue lessons in general secondary education schools. It provides a theoretical justification of the role of mother tongue education in developing national identity, preserving historical memory, fostering respect for national values, and strengthening students' sense of responsibility towards their homeland. Particular attention is paid to the gradual integration of patriotic content into educational materials, interdisciplinary integration, lexical-semantic and etymological analysis, creative assignments, and practical learning activities. The article also proposes pedagogical principles, assessment criteria, and educational approaches aimed at developing patriotic values and civic responsibility among students.

Keywords: school students, patriotic education, mother tongue education, national values, national identity, historical memory, civic responsibility, worldview, interdisciplinary integration, pedagogical technologies, moral education, Alpomish, Ghorogly epics.

KIRISH

Mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Vatanparvarlik insonning o‘z Vatani, xalqi, milliy tarixi, tili, madaniyati va qadriyatlariga bo‘lgan hurmati, sadoqati hamda mas’uliyatida namoyon bo‘ladigan murakkab ma’naviy-axloqiy sifatdir. Ushbu sifat shaxsda o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, balki oila, ta’lim muassasasi, ijtimoiy muhit va maqsadli tarbiyaviy faoliyatning o‘zaro ta’siri natijasida rivojlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi, ma’naviy-axloqiy qarashlari va hayotiy qadriyatlari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli ta’lim jarayonining har bir tarkibiy qismida vatanparvarlik g‘oyalarini izchil aks ettirish, o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy merosga hurmat, fuqarolik burchi va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini rivojlantirish zarur.

Bugungi ta’lim amaliyotida vatanparvarlik tarbiyasini alohida tadbirlar yoki muayyan fanlar doirasida olib borish bilan cheklanib qolmasdan, uni barcha fanlarning mazmuniga singdirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda ona tili fanining imkoniyatlari alohida e’tiborga loyiq. Chunki til millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi, milliy tafakkuri va ijtimoiy qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy vositadir. Ona tili orqali o‘quvchi nafaqat so‘z va grammatik qoidalarni o‘zlashtiradi, balki xalqning tarixi, urf-odatlari, dunyoqarashi va ma’naviy tajribasi bilan ham tanishadi.

Ona tili darslarida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda mavjud o‘quv materiallaridan maqsadli foydalanish, matnlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lash, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish muhimdir. Shu bilan birga, ta’lim mazmunining sinflar kesimida izchil tashkil

etilishi, o‘quv dasturlari va darsliklar o‘rtasida uzviylikning ta’minlanishi ham dolzarb masalalardan biridir.

Ayrim sinflar uchun yaratilgan darsliklarning turli yillarda va turlicha metodologik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgani o‘quv materiallarida mazmuniy uzviylikni ta’minlash masalasini yanada dolzarblashtiradi. Bu holat vatanparvarlik tarbiyasiga oid tushunchalarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich chuqurlashtirib borishni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5–11-sinf o‘quvchilarida ona tili darslari orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, mazkur jarayonning metodik asoslarini ishlab chiqish va ta’lim amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha takliflar bildirishdan iborat.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirish masalalari pedagogika, psixologiya, falsafa va ijtimoiy fanlarda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim-tarbiya jarayonining insonparvarlik, demokratik xususiyatlari, uzluksizligi va izchilligi muhim tamoyillar sifatida belgilangan. Mazkur huquqiy asoslar yosh avlodning ma’naviy, intellektual va jismoniy rivojlanishini ta’minlash bilan bir qatorda, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida yoshlarni vatanparvarlik, milliy g‘urur, fidoyilik va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida jamiyat taraqqiyotida bilimli, tashabbuskor, mustaqil fikrlaydigan va Vatan taqdiriga daxldorlik hissi yuqori bo‘lgan yosh avlodning o‘rni ta’kidlanadi.

I.A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida milliy ma’naviyat, tarixiy xotira, ona tiliga hurmat va milliy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o‘rni keng yoritilgan. Muallifning qarashlari ona tili ta’limi orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va Vatanga daxldorlik tuyg‘usini rivojlantirishning ma’naviy asoslarini tushunishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida yosh avlod tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, ilm-ma’rifat va inson kamoloti masalalari yoritilgan. Allomaning tarbiya haqidagi qarashlari bugungi kunda ham ta’lim jarayonini ma’naviy-axloqiy mazmun bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega.

A. Ibrohimov, X. Sultonov va N. Jo‘rayev tomonidan yaratilgan “Vatan tuyg‘usi” asarida Vatan tushunchasining ma’naviy mohiyati, milliy o‘zlik va tarixiy

xotira masalalari tahlil qilingan. Mazkur asar vatanparvarlikni faqat hududiy mansublik sifatida emas, balki insonning ruhiy-ma’naviy dunyosi, xalqiga va milliy qadriyatlariga munosabati bilan bog‘liq tushuncha sifatida anglash imkonini beradi.

Sh.A. Atadjanovaning oilada o‘spirin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishga bag‘ishlangan tadqiqotida oilaviy tarbiya va milliy merosning shaxs ma’naviy rivojlanishidagi ahamiyati asoslab berilgan. Ushbu yondashuv vatanparvarlik tarbiyasida oila va ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

H. Safoyevning talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga bag‘ishlangan ilmiy maqolasida vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik muammo sifatidagi jihatlari yoritilgan. X.J. Xudoyqulov va O.Ch. Xolovning tarbiyaviy ishlar metodikasiga oid tadqiqotlari esa tarbiyaviy faoliyatni maqsadli tashkil etish, uning shakl va metodlarini tanlash masalalarini o‘rganishda ahamiyatlidir.

Mavjud ilmiy-pedagogik manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari, milliy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari va yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish masalalari yetarlicha o‘rganilgan. Biroq aynan ona tili darslarining lingvistik imkoniyatlaridan foydalanib, 5–11-sinflar kesimida vatanparvarlik tarbiyasini izchil va tizimli amalga oshirish metodikasini takomillashtirish zarurati mavjud. Mazkur maqola ana shu metodik ehtiyojni yoritishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, uzluksiz ta’lim va tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, tizimli yondashuv hamda fanlararo integratsiya tamoyillari tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar ona tili darslarida o‘quvchilarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki ma’naviy-axloqiy qarashlari, fuqarolik pozitsiyasi va Vatanga daxldorlik tuyg‘usini ham rivojlantirishni nazarda tutadi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik, metodik va ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda mavjud ta’lim tajribalarini pedagogik jihatdan tahlil qilish usullariga tayanildi. Shuningdek, ona tili ta’limining mazmuni, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, tarbiyaviy faoliyatning maqsad va vazifalari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

Ona tili darslarida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik tamoyillar asos qilib olindi:

Birinchidan, bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyili. Bunda 5–11-sinflar davomida vatanparvarlikka oid tushunchalar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va ma’naviy rivojlanish darajasiga mos ravishda murakkablashtirib boriladi. “Vatan”, “xalq”, “millat”, “jasorat”, “matonat”, “iftixor”, “sadoqat” kabi tushunchalarning mazmuni leksik, semantik, tarixiy va ma’naviy jihatdan izchil ochib beriladi.

Ikkinchidan, fanlararo integratsiya tamoyili. Ona tili darslarida tarix, geografiya, adabiyot, tarbiya va huquq fanlari bilan uzviy aloqadorlik ta’minlanadi.

Bunda boshqa fanlarda o‘rganilgan milliy tarix, davlat ramzlari, tarixiy shaxslar va madaniy merosga oid bilimlar ona tili mashg‘ulotlaridagi matn va nutqiy faoliyat orqali mustahkamlanadi.

Uchinchidan, amaliy-ijodiy faoliyat tamoyili. O‘quvchilarning vatanparvarlikka oid bilimlarini shaxsiy qarashlari va hayotiy tajribasi bilan bog‘lash uchun esse, bayon, ochiq xat, munozara, taqdimot, audiohikoya va ijodiy matnlar tayyorlash kabi topshiriqlardan foydalaniladi.

To‘rtinchidan, leksik-semantik va etimologik tahlil tamoyili. Milliy qadriyatlarni ifodalovchi so‘zlar, iboralar, maqollar va ramziy obrazlar mazmuni, kelib chiqishi, ma’nodoshlik va zid ma’nolilik xususiyatlari, uslubiy vazifasi hamda matndagi qo‘llanishi asosida tahlil qilinadi.

Beshinchidan, differensial yondashuv tamoyili. O‘quv topshiriqlari reproduktiv, produktiv va ijodiy darajalarda tashkil etiladi. Bunda o‘quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlash qobiliyati, nutqiy imkoniyatlari va individual rivojlanish sur’ati hisobga olinadi.

Mazkur tamoyillar asosida ona tili darslarida vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishning metodik modeli shakllantirildi. Ushbu modelning asosiy tarkibiy qismlarini maqsad, mazmun, metod, vosita, faoliyat va kutiladigan natijalar tashkil etadi.

NATIJALAR

Tadqiqotning nazariy-metodik tahlillari asosida ona tili darslarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni o‘quvchilarning sinflar kesimidagi yosh xususiyatlariga muvofiq tashkil etish zarurligi aniqlandi. Bunda o‘quv materiallari oddiy tushunchalarni o‘zlashtirishdan boshlab, mustaqil ijtimoiy fikr bildirish va fuqarolik mas’uliyatini anglash darajasigacha bosqichma-bosqich rivojlantirilishi lozim.

5-sinfda asosiy e’tibor “Til — millat qiyofasi” g‘oyasini shakllantirishga qaratiladi. “O‘zbek tili — davlat tili”, “Tilning ijtimoiy vazifalari” kabi mavzular orqali ona tilining milliy o‘zlikni ifodalash, tarixiy xotirani saqlash va avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqani ta’minlashdagi ahamiyati tushuntiriladi. “Ona”, “oila”, “yurt”, “Vatan” kabi so‘zlarning lug‘aviy va ko‘chma ma’nolari, ularning matndagi qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi. O‘quvchilar “Mening Vatanim”, “Ona tilim — faxrim” mavzularida kichik matnlar tuzish, maqollar mazmunini izohlash va o‘z fikrlarini og‘zaki bayon etishga yo‘naltiriladi.

6-sinfda vatanparvarlik tushunchalarini davlat ramzlari, tarixiy xotira va milliy qadriyatlar bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasi haqidagi matnlar asosida o‘quvchilar rasmiy uslubning xususiyatlarini o‘rganadilar. Jumladan, matndagi aniqlik, izchillik, qisqalik va mazmuniy yaxlitlikka e’tibor qaratiladi. “Ramz — ma’no — manba” tamoyili asosida semantik xaritalar tuzish, davlat ramzlarining mazmunini izohlash, tarixiy shaxslar faoliyatiga oid qisqa axborot matnlarini tayyorlash kabi mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

7–8-sinflarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, matn mazmunini chuqur anglash va milliy qadriyatlarga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu bosqichda “Vatan va tarixiy xotira”, “Milliy meros va bugungi avlod”, “Ajdodlar jasorati” kabi mavzularda matnlar ustida ishlash samarali hisoblanadi. O‘quvchilar tarixiy voqealar va shaxslar faoliyatini aks ettiruvchi matnlarni tahlil qilib, ulardagi asosiy g‘oya, muallif munosabati va tarbiyaviy mazmunni aniqlaydilar. “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlaridan olingan parchalar asosida jasorat, sadoqat, matonat va yurtga muhabbat kabi fazilatlarning badiiy ifodasi o‘rganiladi.

9-sinfda rasmiy-idoraviy va ijtimoiy-axboriy matnlar bilan ishlash orqali o‘quvchilarning fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy pozitsiyasini ifodalash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Masalan, “Vatan taraqqiyotida yoshlarning o‘rni”, “Men jamiyat oldidagi burchimni qanday tushunaman?” kabi mavzularda ochiq xat, murojaatnoma va qisqa bayonotlar tayyorlash topshiriqlari beriladi. Bunda matnning kirish, asosiy qism va xulosa tuzilishi, dalillarning asoslanganligi hamda fikrlarning mantiqiy izchilligiga e’tibor qaratiladi. “Fikr — dalil — izoh — xulosa” ketma-ketligi o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirish bilan birga, ularda ijtimoiy masalalarga ongli munosabatni shakllantiradi.

10–11-sinflarda vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni yanada kengaytirilib, milliy o‘zlik, fuqarolik burchi, tarixiy mas’uliyat va mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik masalalari ustuvor yo‘nalishga aylanadi. O‘quvchilar ijtimoiy muammolarga oid matnlarni tanqidiy tahlil qilish, turli manbalardagi ma’lumotlarni taqqoslash, o‘z nuqtayi nazarini dalillar bilan asoslash va munozaralarda ishtirok etishga yo‘naltiriladi. “Yangi O‘zbekiston va yoshlar mas’uliyati”, “Vatan ravnaqi — mening hissam”, “Milliy qadriyatlar va zamonaviy taraqqiyot” kabi mavzularda esse, loyiha va taqdimotlar tayyorlash tavsiya etiladi.

Ona tili darslarida maqol va hikmatli so‘zlardan foydalanish ham muhim metodik imkoniyat hisoblanadi. Jumladan, “Vatanni sevmoq iymondandir”, “Bulbul chamanni sevar, odam — Vatanni” kabi maqollarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi kengayadi, xalq og‘zaki ijodida mujassam bo‘lgan ma’naviy qarashlar anglanadi. Bunda maqollarning mazmunini shunchaki yod olish emas, balki ularning kundalik hayotdagi ahamiyatini misollar bilan tushuntirishga e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, maktab kutubxonalarida “Yurt va so‘z” nomli ma’naviy-ma’rifiy burchak tashkil etish, unda vatanparvarlik mavzusidagi badiiy asarlar, tarixiy manbalar, maqol va hikmatli so‘zlar to‘plamlarini joylashtirish maqsadga muvofiq. O‘quvchilarning mustaqil mutolaasini rag‘batlantirish uchun “Yosh kitobxon”, “Vatan haqida eng yaxshi esse”, “Ajdodlar merosi — bebaho xazina” kabi tanlov va ijodiy mashg‘ulotlardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning vatanparvarlikka oid bilim va ko‘nikmalarini baholash uchun to‘rtta asosiy mezon taklif etiladi:

Mazmunni anglash — tarixiy, milliy va ma’naviy tushunchalarni to‘g‘ri izohlash, matn mazmunini anglash.

Dalillash ko‘nikmasi — bildirilgan fikrlarni ishonchli manba, misol va dalillar bilan asoslash.

Nutqiy kompetensiya — fikrni mantiqiy, izchil, ravon va ta’sirchan ifodalash.

Axloqiy-fuqarolik pozitsiyasi — milliy qadriyatlarga hurmat, ijtimoiy mas’uliyat va Vatanga daxldorlikni namoyon etish.

Mazkur mezonlar asosida har bir mavzu yakunida o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va mustaqil xulosa chiqarishiga imkon beruvchi refleksiv mashg‘ulotlarni tashkil etish tavsiya etiladi.

MUHOKAMA

Ona tili darslari orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish jarayonida lingvistik bilimlar bilan ma’naviy-axloqiy tarbiya o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash muhim pedagogik shartlardan biridir. Chunki til faqat axborot almashish vositasi bo‘lib qolmay, balki millatning tarixiy tajribasi, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi ijtimoiy hodisa hamdir. Shu sababli ona tili mashg‘ulotlarida o‘rganiladigan har bir mavzuning tarbiyaviy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zarur.

Bunda vatanparvarlikni faqat tarixiy qahramonlar, davlat ramzlari yoki milliy bayramlar bilan bog‘liq tushunchalar doirasida talqin qilish yetarli emas. U, eng avvalo, o‘quvchining kundalik xulq-atvori, jamoaga munosabati, o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajarishi, davlat va jamiyat manfaatlariga hurmat bilan qarashi orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, jamoat joylarida tartibga rioya qilish, tabiatni asrash, davlat mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, ona tilida savodli va madaniyatli muloqot qilish ham vatanparvarlikning amaliy ko‘rinishlari hisoblanadi.

O‘quvchilarda bunday fazilatlarni rivojlantirishda badiiy matnlarning tarbiyaviy imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” kabi xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazi orqali yurtga sadoqat, jasorat, or-nomus, matonat va va’daga vafo qilish kabi fazilatlar o‘quvchilarga ta’sirchan shaklda yetkaziladi. Bunda o‘qituvchi asar mazmunini bayon qilish bilan cheklanmay, qahramonlarning xatti-harakatlari, qarorlari va ma’naviy tanlovlarini tahlil qilishga yo‘naltirishi lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim jarayonidagi fanlararo hamkorlikka ham bog‘liq. Ona tili, adabiyot, tarix, geografiya, tarbiya va huquq fanlarida o‘rganiladigan mavzular o‘zaro muvofiqlashtirilganda o‘quvchilarda yaxlit bilim va qadriyatlar tizimi shakllanadi. Masalan, tarix darsida o‘rganilgan muayyan tarixiy voqea ona tili mashg‘ulotida matn tahlili, bayon yoki munozara mavzusi sifatida davom ettirilishi mumkin. Bu esa bilimlarning o‘zaro mustahkamlanishiga va ularning tarbiyaviy ta’sirini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalar, elektron kutubxonalar,

hujjatli lavhalar va ma’rifiy videomateriallar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi. Biroq raqamli vositalar asosiy ta’limiy faoliyatning o‘rnini egallamasligi, balki matnni o‘qish, tahlil qilish, fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish jarayonini qo‘llab-quvvatlashi kerak.

O‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi ham muhim o‘rin tutadi. Maktabda tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, tarixiy joylarga sayohatlar, faxriylar va turli kasb egalari bilan suhbatlar, kitobxonlik tadbirlari o‘quvchilarning ijtimoiy tajribasini kengaytiradi. Bunday tadbirlar ona tili darslaridagi ijodiy topshiriqlar bilan bog‘langanda ularning ta’limiy va tarbiyaviy samarasi yanada ortadi.

Shu bilan birga, vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Quyi sinflarda obrazli tasvir, maqol va hikoyalar, sodda matnlar hamda amaliy misollar ustuvor bo‘lsa, yuqori sinflarda tahliliy matnlar, munozaralar, mustaqil izlanishlar va ijtimoiy mavzulardagi loyihalardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Taklif etilayotgan metodik yondashuvning muhim jihati shundaki, unda vatanparvarlik tarbiyasi ona tili fanining asosiy ta’limiy vazifalaridan ajratilmaydi. Aksincha, lug‘at ustida ishlash, matn yaratish, nutq madaniyati, uslubiyat, grammatik tahlil va mustaqil fikrlash kabi faoliyatlar tarbiyaviy maqsadlar bilan uyg‘unlashtiriladi. Natijada o‘quvchi tilga oid bilimlarni egallash bilan birga, o‘z milliy mansubligini anglash, tarixiy merosga hurmat va jamiyat oldidagi mas’uliyatni his qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

XULOSA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uzluksiz, tizimli va maqsadli pedagogik faoliyatni talab etadi. Ushbu jarayonda ona tili fanining imkoniyatlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega, chunki til milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish hamda avlodlarga yetkazishning muhim vositasidir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 5–11-sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishda ta’lim mazmunini bosqichma-bosqich murakkablashtirish, fanlararo integratsiyani ta’minlash, leksik-semantik va etimologik tahlillardan foydalanish, ijodiy-amaliy topshiriqlarni kengaytirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Ona tili darslarida “Vatan”, “yurt”, “xalq”, “millat”, “jasorat”, “sadoqat” kabi tushunchalarni lingvistik va tarbiyaviy jihatdan o‘rganish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish bilan birga, milliy qadriyatlarga munosabatini ham rivojlantiradi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari, tarixiy manbalar, badiiy asarlar va maqollardan maqsadli foydalanish esa vatanparvarlik g‘oyalarining o‘quvchilar ongiga ta’sirchan singdirilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasini samarali tashkil etish uchun ona tili darsliklari va o‘quv dasturlaridagi tarbiyaviy mazmunni takomillashtirish, sinflar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish

hamda o‘quvchilarning bilim va tarbiyaviy rivojlanishini baholash mezonlarini aniqlashtirish lozim.

Oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni dars jarayoni bilan uyg‘unlashtirish, tarixiy meros va milliy qadriyatlarga asoslangan ijodiy faoliyatni kengaytirish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida vatanparvarlik tarbiyasini tizimli tashkil etish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat, fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faollik va ma’naviy yetuklikni rivojlantirishning samarali pedagogik yo‘nalishlaridan biridir. Bunda vatanparvarlik shunchaki nazariy tushuncha sifatida emas, balki o‘quvchining kundalik faoliyati, xulq-atvori va hayotiy pozitsiyasida namoyon bo‘ladigan barqaror ma’naviy fazilat sifatida shakllanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. – 2017-yil 7-fevral.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 48 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 278 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. – 2018-yil 27-iyun.
7. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // Xalq so‘zi. – 2017-yil 1-iyul.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
9. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
10. Aminov B., Rasulov T. Vatan – yurakdagi javohir. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 232 b.
11. Atadjanova Sh.A. Oilada o‘spirin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2001. – 19 b.
12. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 397 b.
13. Safoyev H. Talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – dolzarb pedagogik muammo sifatida // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2021. – № 3. – B. 276.
14. Xudoyqulov X.J., Xolov O‘.Ch. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Termiz, 2020. – 225 b.
15. Xudoyqulov X.J., Boboqulova D.M. Pedagogika: darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
16. Qurbonov R.Yu. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni: Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008.